

## BO‘LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA TUZILMASI

*CHDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti  
dotsenti, p,f,f,d(PhD) Teshabayeva Zamira Sobirovna  
CHDPU “Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi  
talabasi Abdullayeva Durdona Dilshod qizi*

### Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik oliy ta’lim muassasalarida maktabgacha ta’lim tizimi uchun sifatli kadrlarni tayyorlash, ta’limga bo’lgan ehtiyojdan kelib chiqib, sohaga oid malaka va kompetentsiyani rivojlantirishni ko’zda tutuvchi mazmuni tashkil etishning masalalari haqida bayon etiladi. Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan inson hayoti va kamolotida kasb-hunarning ahamiyati borasida muhim mulohazalar bayon qilinadi.

Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning muhim omillari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

**Kalit so’zlar:** pedagogik jarayon, tarbiyachi-pedagog, motiv, tamoyil, usul, omil, mustaqillik, maktabgacha ta’lim, rivojlantiruvchi, mehanizm, kasbiy, ko’nikma.

Oliy ta’lim tizimida o’quv jarayonini tashkil etishda talabalarning shaxsiy rivojlanish sifatleri va qiziqishlariga e’tibor qaratish muhim sanaladi. Bo’lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish orqali pedagogik jarayonga tayyorlash ularda kasbiy kompetentsiya, kasbiy ko’nikma, malakalarning oshirilishiga erishiladi.

Bo’lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ta’lim jarayonida turli xil o’zaro ta’sir ko’rsatish usullari, talabalarning shaxsiy moyilligi va layoqatini oshirishda professor-o’qituvchilardan pedagogik mahorat va tamoyillarga rioya qilish taqozo etiladi. Tamoyillarning muhim jihatlari talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini ko’rsata olish, faolligini namoyon etish, ta’lim jarayonida shaxsiy ijodiy qarashlarini bildirish kabilarda namoyon bo’ladi. Talabalarda mazkur ko’nikmalarning shakllanishi kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, ta’lim muhitiga yangiliklarni tatbiq etish malakalarining egallashlarini kafolatlaydi. Ularda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv hamda tarbiyalanuvchilar bilan samarali muloqotda bo’lish malakasi, o’zini-o’zi rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Muammo yuzasidan o’tkazilgan tajriba-sinov ishlarida talabalar bilan “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o’rgatish” o’quv modulini o’qitishda quyidagi tamoyillar asosida o’quv-tarbiyaviy faoliyat tashkil etildi:

• **1. Mustaqillik tamoyili.** Bunda talabalar o‘zini-o‘zi namoyon etishi hamda o‘quv faoliyatini mustaqil tashkil etishiga sharoit yaratiladi. O‘quv faoliyatini mazmunli amalga oshirish va topshiriqlarni belgilashda talabalarning takliflari, mustaqil fikrlashlari inobatga olinadi. Darsda erishilgan natija va yutuqlar o‘qituvchi hamda talabalar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi.

• **2. Rivojlantiruvchi tamoyil.** Bunda o‘quv jarayonini muntazam o‘zgartirib turish taqozo etiladi. Mashg‘ulotni tashkiliy qismidan boshlab yakunigacha talabalarning xohish istaklari qondiriladi. Talabalar mavzuga oid muammolarni mustaqil ravishda hal etishlari va jarayonga o‘z munosabatlarini bildishlari uchun pedagogik sharoit yaratiladi. Tamoyilning mohiyati shundaki, o‘quv topshiriqlari qismlarga bo‘linib, barchaga taqsimlanadi, hamkorlikdagi faoliyatdan, ijtimoiy harakat hamda mustaqil ravishda ichki harakatga o‘tish amalga oshiriladi.

• **3. Hamkorlik tamoyili.** Bunda pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talabalarda tashabbuskorlik, ijodkorlikni namoyon ettirish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, bilim, ko‘nikma va malaka, kompetentsiyalarni takomillashtirish, o‘zaro birgalikdagi ta‘limiy harakatlar amalga oshiriladi, hamkorlik strategiyasi takomillashtirib boriladi.

• **4. Rol ijro etish tamoyili.** Bunda o‘qituvchi va talabalar belgilangan topshiriq, vazifalarni bajaradilar. Topshiriqlar davlat, jamiyat, ta‘limni boshqaruvchi tashkilotlarning ijtimoiy talablariga asosan beriladi. O‘qituvchi talabalar faoliyatining tashkilotchisi va rahbar rolini ijro etadi. Talabalar, o‘z navbatida, o‘qituvchi bergan topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajaradilar.

• **5. Mas‘uliyatni his etish tamoyili.** Bunda barcha talabalardan o‘quv jarayonida nafaqat ularga qo‘yilgan majburiyat, balki o‘z xatti-harakatlari, faoliyat natijalari, berilgan topshiriqlarning bajarilishi bo‘yicha hisobot talab qilinadi. Talabalar kasbiy mas‘uliyat hissi hamda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanganligi haqida ma‘lumot beradilar.

• **6. Jamoaviylik tamoyili.** Bunda o‘qituvchi va talabalar o‘zaro birgalikda faoliyat yuritadilar. Barcha ishtirokchilar bir-birlariga yordam ko‘rsatadilar, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni birgalashib hal qiladilar. Talabalardan o‘quv maqsadlarining muvaffaqiyatli kechishida bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, qiziqishlari va intilishlarini namoyon etishda jamoaviy harakat qilishlari talab etiladi.

• **7. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tamoyili.** Bunda dars jarayonida sog‘lom ruhiy muhitni yaratish orqali o‘quv faoliyatining samarali bo‘lishiga erishish nazarda tutiladi. Talabalar faoliyati ruhan qo‘llab-quvvatlab turiladi. Past o‘zlashtiruvchi talabalar faol talabalar bilan birlashtirilib, ularning faolligini oshirishga e‘tibor qaratiladi. Auditoriyada ko‘tarinki kayfiyat o‘rnatilishi lozim bo‘ladi.

• Sanab o‘tilgan tamoyillar bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak tarbiyachi-

pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmuni bir qancha tarkibiy tuzilmadan iborat bo'lib, 2.1-jadvalda ifodalandi.

•2.1-jadval

•**Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmuni tarkibiy tuzilmalari**

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Motivatsion omillar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kasbiy ehtiyoj, kasbiy faol bo'lish,</li> <li>• pedagogik faoliyatga moslashish; o'zidagi mavjud</li> <li>• tajribani bilimlar bilan boyitish;</li> <li>• hissiy barqarorlik.</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kasbiy yo'nalganlik</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• sabrlilik, mehnat intizomini bilish, shaxsiy namuna, mehnatsevarlik, hamkorlik munosabatini o'rnatish, ota-onalar bilan hamkorlik, kasbiy burchi va majburiyatlari.</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kasbiy faoliyat mazmunidan xabardorlik</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Maktabgacha ta'lim sohasiga doir me'yoriy hujjatlar bilan tanishish; o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish; pedagogika va bolalar psixologiyasidagi so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lish; zamonaviy texnologiyalarni o'rganish.</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kasbiy qiziqishlar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• bolalarni sevishtirish, ularni kuchi va imkoniyatiga ishonish; ilg'or ish tajribani o'rganish; o'z yutuqlarini namoyish etish;</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ijodiy-refleksiv faoliyat</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ijodiy faoliyatni tashkil etish; o'z-o'zini baholash; kreativlik, o'z g'alar faoliyatini kuzatish va baholash.</li> </ul>

Talabalarda kasbiy mahoratning shakllanishi ularning shaxsiy sifatleri va faoliyat tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash kasbiy kompetentsiya, kasbiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan amalga oshadi. Talabalarning kasbiy kompetentlik tarkibiga kasbiy sifatlar, individual xususiyatlar, kasbiy motivlar, qiziqish va moyillik kiradi. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishi kasbga sodiqlik va kasbiy tayyorgarlikdan boshlanadi

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Хурвалиева Т.Л. Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish. //Mug'allim ham yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikalыq jurnali.Nukus.2023,№1/1. P. 185-189.

2. Усова А. П. Обучение в детском саду / Под.ред. А. В. Запорожца. –3 еизд. Испр -М.: Просвещение, 1991. – 168 с

3.Абдуллаева, Д. Р., & Тешабаева, З. С. (2023). ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ-ПЕДАГОГОВ. QO 'QON UNIVERSITETI XAVARNOMASI, 714-717.

4. Содиқов Ҳамид Махмудович Бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив-нутқ маданиятини ривожлантириш: пед.фан.фал.док. ...дисс. — Тошкент, 2020. – 234 б.

5.Teshabayeva, Z. S. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN THE FIELD OF CONTEXTUAL LEARNING TECHNOLOGIES. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.

6.Ibraimov, X., & Gaynazarova, G. (2023). THE CONTENT OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF INDIVIDUAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B12), 330-333.